

**SCIENCE
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari

Son 8 Jild 4

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 8 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллӣ Университети.

Сайдов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳоновиҷ – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёрова – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирор Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуревна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхәйё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;
Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Бегамова Насиба Холмурзаевна</i>	
МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА АГРАР СОҲА ХОДИМЛАРИНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШДА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ РОЛИ (ЎЗБЕКИСТОН ЖАНУБИЙ ВИЛОЯТЛАРИ МИСОЛИДА)	11-19
<i>Насиратдинов Сапар Жеткербай-улы</i>	
ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРДА ФОТОГРАФИЯНИНГ ЎРНИ	20-25
<i>Нарманов Феруз Асфандиёрович</i>	
ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЖАЛОЛИДДИН МАНГУБЕРДИ ҲАЁТИ ВА ФАОЛИЯТИНИНГ ҮҚИТИЛИШИ	26-30
<i>Rustamov Ilxomidin</i>	
“O’ZBEKISTON - 2030” STRATEGIYASI – XALQ STRATEGIYASI (YANGI O’ZBEKISTON TARIXI)	31-34
<i>Normo’mnov Aziz</i>	
О’ZBEKİSTONLIK SPORTCHILARINING PARAOLIMPIYAMUSOBAQALARIDAGI ISHTIROKI	35-39
<i>Turdiboyeva Gulmira</i>	
VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIGIGA QARSHI KURASH BO’YICHA TARG’IBOTLAR SAMARASI	40-44
<i>Xamidova Shoira Rasulovna</i>	
PARASPORT TURLARI VA ULARNING QONUNIYATLARI	45-51
<i>Ахмедов Жасурбек Зокиржонович</i>	
МАДАНИЯТШУНОСЛИК ВА НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТЎҒРИСИДА	52-54

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Raximov To’xtabek Jumaboyevich</i>	
KICHIK BIZNES KORXONALARINING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	55-60
<i>Allaberganov Xushnud Allamberganovich</i>	
TASHQI SAVDO SALOHIYATINING MINTAQА IQTISODIYOTIDA TUTGAN O’RNI	61-68
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич</i>	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ТРАНСПОРТНЫЕ КОРИДОРЫ: СИНЕРГЕТИЧЕСКАЯ ВЫГОДА И ПОИСК РЕШЕНИЯ НЕПРОСТЫХ ЗАДАЧ	69-81
<i>Baqoeva Dilfuzा</i>	
SANOAT KORXONALARIDA SOTUV TIZIMINING OLIB BORILISHI, MOHIYATI VA YO’NALISHLARI	82-86
<i>Adilov Mirkomil Miralimovich</i>	
TIJORAT BANKLARI KREDIT QO’YILMALARINING MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH	87-93

Donayev Sheroli Burxonovich

DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RIVOJLANTIRISH ASCENT

STRATEGIYASINING AHAMIYATI 94-101

Kaxarov Jasur Abulkosimovich

ГАСТРОНОМИЯ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ

МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 102-109

Rahmonov Shukhrat Shavkatovich

ТУРИСТИК МАҲСУЛОТ ДИВЕРСИФИКАЦИЯСИННИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

110-117

Sherov Alisher Bakberganovich

OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI 118-129

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Tag'oyeva Dilnavoz Narziqulovna

МАHMUDXO'JA BEHBUDIY MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI VA ULARNING IJTIMOIY-

AXLOQIY MUNOSABATLARDAGI KONSTRUKTIV MOHIYATI 130-135

Muhamedov Asror

G'ARB RENNESANSIGA TURTKI BO'LGAN OMILLAR 136-145

Aripova Zulfiyaxon Saljanovna

HOZIRGI ZAMONDA ETIKA VA ESTETIKANI O'QITISHNING AMALIYIJTIMOIY

AHAMIYATI 146-151

Abdumalikov Abdulatif Abidjanovich

INSONNING TABIATGA NOOSFERAVIY MUNOSABATINI YUKSALTIRISH

ZARURIYATI 152-156

Xolmatov Uchqunjon Xamidullayevich

AXBORIY-PSIXOLOGIK VA MADANIY TAHDIDLAR SHAROITIDA MILLATLARARO TOTUVLIK

VA HAMJIXATLIKNI TA'MINLASHNING TA'LIMIY-TARBIYAVIY VAZIFALARI 157-162

Шоназаров Жамшид Шухратович

ЖАДИДЛАР ФОЯЛАРИ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ БИЛАН ҲАМОҲАНГ 163-168

Xo'janova Tamara Jo'raevna

YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARINI AXBOROT URUSHI DAVRIDA MAFKURAVIY

TAJOVUZLARDAN ASRASH OMILLARI 169-174

Quchqorov Javlon Suyundik o'g'li

MILLIY G'OYA VA DEMOKRATIK O'ZGARISHLAR DIALEKTIKASIGA MADANIY HODISALAR

SIFATIDA QARASH 175-179

Muxtorova Tutixon

GLOBALLASHUV JARAYONLARIGA FALSAFIY YONDASHUVLARNING O'ZIGA

XOS JIHATLARI 180-186

Rahmonova Mavluda Abdusamadovna

ABDURAUF FITRATNING "OILA" ASARIDA JAMIYAT MA'NAVIY-AXLOQIY RIVOJIGA DOIR

QARASHLARI TAHLILI 187-194

Pirnazarov Nurnazar

- TANA, RUX VA MA'NAVIYATNING INSON BORLIG'IDAGI AKS ETISHINING
FALSAFIY TAHЛИLI 195-201

Ismailov Dilshod Baxriddinovich

- DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING
MA'NAVIY-AXLOQIY SEGMENTI: KOMPARATIV YONDASHUV 202-209

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Yuldasheva Shaxnoza Azimboyevna

- RAY BREDBERI VA ISAJON SULTON ASARLARIDA MA'RIFATPARVARLIK MOTIVLARI
TALQINI 210-216

Bozorbekov Ahmadbek

- O'ZBEK TERMINOLOGIYASIDA TEXNIK, ZAMONAVIY LOGISTIKA SOHASIDAGI
TERMINLARNING YASHALISH MODELLARI VA PARADIGMATIKASI 217-230

Xamrayev Fozilbek Yo'lidoshevich

- ZAMONAVIY O'ZLASHMALARNI MILLIYLASHTIRISHDA O'ZBEK TILINING TARIXIY ZAXIRA
MANBALARIDAN FOYDALANISH 231-236

O'tebaeva Dilbar

- TURKIY TILLARGA UMUMIY BO'LGAN EKOLOGIK ATAMALAR 237-242

Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna

- EPIK KLISHELAR HAMDA ULARNING INGLIZ VA NEMIS TILLARIDAGI TALQINI
("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA) 243-247

Kadirova Zaynab Bakoyevna

- INGLIZ TILIDAGI REKLAMANING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI 248-252

Allaberganova Nilufar Matnazar qizi

- QOFIYA ASOSLARIDAGI MATNLARNING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI 253-256

Nabiyeva Rushana Jamol qizi

- OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI NOMLARI LEKSIK-SEMANTIK GURUHINING MA'NOVIY
GURUHLARI VA ULARDA YANGI O'ZLASHMALARNING ISHTIROKI HAQIDA 257-262

To'rayeva Iroda Sheramatovna

- FOLKLORIZMLAR TIZIMIDA ETNOGRAFIK FOLKLORIZMLARNING O'RNI VA
SPETSIFIKASI 263-268

Qodirova Munisa Erkinjon qizi

- BADIY MATNDA QO'LLANILGAN SAN'ATGA OID TERMINLARNING LEKSIK TIPOLOGIYASI
(INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) 269-272

G'aniyeva Nozanin G'ayratovna

- MARKAZIY OSIYODA JADID AYOLLARINING PATRIARXAL TUZILMALAR VA
MUSTAMLAKACHILIK ZULMIGA QARSHI CHIDAMLILIGI VA QARSHILIGI 273-277

Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna

- TURKIY ADABIYOTDA "IBROHIMI ADHAM" QISSALARI TAHЛИLI 278-284

Eshniyazova Maysara Beknazarovna

- ALISHER NAVOIYNING "ARBA'IN" ASARIDAGI HADISLAR BAYONIDA G'OYAVIY-BADIY
IFODA MUKAMMALLIGI 285-292

Raxmonova Dildora Mirzakarimovna

- O'ZBEK JADID ADABIYOTIDA OVRUPO MADANIYATI TALQINI 293-298

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna</i>	
MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI HUQUQIY TIZIMLARIDA KODEKSLASHTIRISH	
JARAYONINING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI	299-306
<i>Узакова Гўзал Шариповна</i>	
ШАҲАРЛАР ВА БОШҚА АҲОЛИ ПУНКТЛАРИДА АТРОФ МУҲИТНИ МУҲОФАЗА	
ҚИЛИШНИНГ ЭКОЛОГИК-ХУҚУҚИЙ ТАЛАБЛАРИ	307-325
<i>Пулатова Нодирахон Собиржоновна</i>	
ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ УСТРАНЕНИЯ СУДЕБНЫХ ОШИБОК В ОБЕСПЕЧЕНИИ	
ПРАВ ЧЕЛОВЕКА	326-332
<i>Nizamatdinov Kayrat Keunimjaevich</i>	
MOBIL ALOQA XIZMATI KO'RSATISHDA MILLIY ALOQA OPERATORLARINING FAOLIYATINI	
HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH	333-341
<i>Абдурахманова Нодирахон</i>	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В	
ОНЛАЙН АРБИТРАЖАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ	342-345
<i>Bokiyev Jahongir Nurmatjon o'g'li</i>	
TA'LIM OLISH HUQUQINING GENEZISI HAMDA UNING YURIDIK TABIATI	346-356
<i>Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'li</i>	
SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGI HUQUQINI TA'MINLASH MASALALARI	357-368
<i>Утапов Фурқат</i>	
ИНДИВИДУАЛЛАШТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА ТОВАР БЕЛГИСИНИНГ ХУҚУҚИЙ	
МАҚОМИ	369-374
<i>Dilboboyev Nozimbek Shavkat o'g'li</i>	
XALQARO VA MILLIY DARAJADA INVESTITYA QONUNCHILIGINING RIVOJLANISH	
TENDENSIYASI	375-381
<i>Назарова Марҳабо</i>	
ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА И РАЗВИТИЕ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В	
УЗБЕКИСТАНЕ	382-386
<i>Абулхайров Рустамхон Ибодуллаевич</i>	
ПОРТЛАШ СОДИР БЎЛГАН ЖОЙНИ КЎЗДАН КЕЧИРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ЎТКАЗИШ	
МАСАЛАЛАРИ	387-400
<i>Абдусамиева Дилрабо Абдувахоб кизи</i>	
ВОПРОСЫ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ БЫВШИХ ОСУЖДЕННЫХ В НЕКОТОРЫХ	
МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТАХ.....	401-406
<i>Abdikhakimov Islombok</i>	
LEGAL RELATIONS AND STAKEHOLDERS IN QUANTUM TECHNOLOGIES REGULATION: A	
COMPREHENSIVE ANALYSIS OF GOVERNANCE FRAMEWORKS	407-412

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Djabbarova Nilufar Baxtiyarovna</i>	
TALABA-QIZLARDA LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA FALSAFIYPEDAGOGIK	
YONDASHUVLARNING ROLI	413-417

<i>Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich</i>	
BO'LAJAK REJISSYORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI ADABIY ASARLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHDA DEBYUT MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI	418-423
<i>Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna</i>	
HOFIZ XORAZMIY DIDAKTIK QARASHLARINI O'RGANISHNING HOZIRGI HOLATI	424-429
<i>Ismoilova Shodiyaxon Xusanboy qizi</i>	
NEMIS TILIDAN KEYIN INGLIZ TILI O'RGANISH JARAYONIDA FONETIK INTERFERENSIYANI YUZAGA KELTIRUVCHI OMILLAR	430-435
<i>Salimov Ma'ruf Eshdovlat o'g'li</i>	
O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	436-439
<i>Палванова Умида Бахрамовна, Тургунов Собитхон Таушулатович, Якубова Азада Ботировна</i>	
ОРГАНИЗАЦИЯ И УПРАВЛЕНИЕ ОБУЧЕНИЕМ СТУДЕНТОВ НАВЫКАМ ОКАЗАНИЯ ПЕРВОЙ ПОМОЩИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА	440-444
<i>Rasulova Fotima Farxotovna</i>	
O'QUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA YO'NALТИRISHNING NAZARIY VA USLUBIY YO'NALISHLARINING ILMIY TAHLILI.....	445-450
<i>Saidxo'jayev Muhammadxo'ja Ma'rufxo'ja o'g'li</i>	
YOSHLARNI MA'NAVIY-MA'RIFIY TARBIYALASHDA IJTIMOIY - PEDAGOGIK OMILLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'llARI.....	451-456
<i>Utepbergenov Aydos Janabayevich</i>	
SAHNA NUTQI O'QITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	457-461
<i>Nozima Muqimovna Hamdamova</i>	
MAJBURIY FANLARDAN TALABLARNING KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA GRAFIK DASTURLARIDAN FOYDALANISH	462-467

Received: 30 July 2024

Accepted: 5 August 2024

Published: 15 August 2024

Article / Original Paper

SPIRITUAL AND ETHICAL SEGMENT OF INCREASING THE EFFECTIVENESS OF CIVIL SERVANTS: A COMPARATIVE APPROACH

Ismailov Dilshod Bakhruddinovich

Independent researcher, Institute of Social and Spiritual Research of the Republican Center of Spirituality and Enlightenment

Abstract. This article, based on a comparative approach, scientifically analyzes the spiritual and ethical segment of increasing the efficiency of civil servants. The article also scientifically substantiates that the development of moral qualities of civil servants is a very important task of the state at all times and in all places.

Keywords. state, management, citizen, spirituality, ideology, education, segment, comparative, time, space, propaganda.

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MA'NAVIY-AXLOQIY SEGMENTI: KOMPARATIV YONDASHUV

Ismailov Dilshod Baxriddinovich

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat fuqarolik xizmatchilar faoliyati samaradorligini oshirishning ma'naviy-axloqiy segmenti komparativ yondoshuv asosida ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada davlat xizmatchilarining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish barcha zamon va makonlarda davlatning o'ta muhim vazifasi ekanligi ilmiy yoritilgan.

Kalit so'zlar: *davlat, boshqaruv, fuqaro, ma'naviyat, mafkura, tarbiya, segment, komparativ, zamon, makon, tapg'ibot.*

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I8Y2024N29>

Kirish. Tarixdan ma'lumki, davlat xizmatchilarining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish barcha zamon va makonlarda o'ta muhim vazifa hisoblangan. Bu o'ziga xos korporativ axloqiy rivojlantirish tizimini o'z ichiga oladi va odob-axloq, sharaf kodekslari deb ataladigan, davlat fuqarolik xizmatchilarining xulq-atvor tamoyillarini belgilovchi me'yoriy hujjatlarni o'z ichiga oladi. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'biri bilan aytganda: "Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi, avvalambor, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bevosita bog'liq" [1]. Zero, jamiyat, millatning kamchiliklardan xoli bo'lishi, avvalo, rahbar xodimlar, davlat xizmatchilarining zamon talabiga mos bo'la olishi, o'zidagi ma'naviy qusur-kamchiliklardan forig' bo'lishidan, barcha fazilatlari bilan o'z jamoalariga namuna, o'rnak va ibrat bo'la olishiga bog'liq.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Eng muhim vazifamiz – mamlakatimizda tinchlik va farovonlikni mustahkamlash, odamlarni, xalqimizni hayotdan rozi qilishdan iborat. Buning uchun el-yurtimiz avvalo biz – rahbarlarning faoliyatidan rozi bo'lishi kerak. Buning uchun har bir rahbar o'z aravasini o'zi tortishi, o'z sohasidagi ishlarning ahvoli uchun o'zi shaxsan javob berishi kerak. Shundan keyin jamiyatimizda o'zgarish bo'ladi, rivojlanish bo'ladi" [2].

Fuqarolik jamiyatida davlat fuqarolik xizmati, kadrlar siyosatining ma'naviy-axloqiy, ilmiy-metodik, tarbiyaviy talablari qanday bo'lishi kerak? Bu savol jahonning eng sinalgan uslub, chora-tadbirlariga, erishilgan natijalariga tahliliy nazar solishni talab qiladi. Shu ma'noda G'arbiy Yevropa, Amerika Qo'shma Shtatlarining kadrlar siyosati tadriji haqida ayrim ma'lumotlarni bilib qo'yish foydadan xoli bo'lmaydi. Bu borada bir qator tadqiqotchilarining tahliliy qarashlarini o'rganish yuqoridaq savollarga tarixiy ekskurs qilish va zamonaviy menejment nuqtai nazaridan keng muhokamalar imkoniyatini beradi[3].

Komparativ tahlillar Yevropa va AQSh davlat xizmatlari tarixini to'rt bosqichga bo'lishadi:

1. "Merosxo'rlar va jentlmenlar boshqaruvi davri" (1789-1829 yillar).
2. "Lavozimlarga o'z kuchi bilan erishganlar boshqaruvi davri" (1829-1883 yillar).
3. "Xammaga yaxshi bo'lsin" tamoyili asosida boshqaruv davri (1883—1906 yillar).
4. "Ilmiy asosda boshqaruv davri" (1906 yildan to shu kungacha).

Bosqichlarning nomlanishi o'sha davrlarga xos kadrlar siyosati nazariyasi va amaliyoti xususiyatlarini aks ettiradi.

"Merosxo'r va jentlmenlar" boshqaruvi davrida hokimiyatda ko'proq spoils system (sarmoya, kuch egalari) va merits system (xizmat qilib qo'yanlar) bo'ldi. Boshqaruv lavozimlariga, asosan, katta yer egalari (jentri) ko'tarildi. Biroq ular xalq hayotidan uzilib qolgani, oddiy kishilar manfaatini ifodalay olmasligi, guruhbozlik, qon-qarindoshchilik, sulolaviylik kabi illatlari uchun tanqid qilindi. Bularning bari yangi – "lavozimlarga o'z kuchi bilan erishgan kishilar" davrini boshlab berdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bu davr 1828 yilda E.Jeksonning prezidentlik saylovidagi g'alabasidan boshlandi. U yuksak lavozimga ega bo'lgach, yangi - egalitar mafkura bayrog'ini ko'tardi. Bu rahbarlik lavozimiga tanlovlarni xalq nazorati ostida o'tkazish, bu jarayonda barcha aholi qatlamlariga teng huquq berish, davlat xizmatini demokratlashtirish, lobbizm va korrupsiyaga karshi kurashni kuchaytirishni taqozo etardi. Biroq eski tamoyilni qo'msovchi sarmoyadorlar yanada kuchayib, katta xavfga aylandi va XIX asrning 80-yillariga kelib davlat xizmati tizimini isloq kilish eng muhim siyosiy muammolardan biriga aylandi.

"Hammaga yaxshi bo'lsin" davrining muhim ko'rsatkichi 1883 yilda qabul qilingan Pendleton qonuni bo'ldi[4]. Davlat xizmati tizimiga kirish uchun tanlovlarni joriy qilindi, davlat xizmatchisining siyosiy betarafligi ta'minlandi. AQShda rahbar lavozimlariga tanlov angliyaliklardan yaxshiroq, ya'ni amaliy professiogrammalar asosiga qurildi. Davlat xizmatchilar majburiyatlarini Amerika muhitidan kelib chiqib tahlil qilish, tasniflash bo'yicha fundamental ishlar natijasida "Fuqarolik ma'muriy xizmati lavozimlari tasnifi to'g'risida" qonun qabul qilindi. U davlat xizmatchilarini siyosiy bosimlardan himoya qildi. Davlat xizmatchilar o'zlarining aniq-tiniq majburiyatlariga ega bo'lish orqali byurokratiya yo'llari yopilishga zamin yaratdi. Shu tariqa, ma'naviy-axloqiy me'yorlar hal qiluvchi mezonga aylana bordi.

Bu islohot muhim vazifani o'tab, davlat xizmatchilarini tanlash texnologiyasining yangi davrini boshlab berdi va ilmiy yondashuv tamoyilining joriy qilinishiga sharoit yaratdi. Bu bilan natijalarни baholashning ob'ektivligiga intilish boshlandi;

xodim imkoniyatlarining lavozim talablariga (professiogrammaga) mosligi mezonlari joriy etila boshladi;

shaxsiy munosabatlarning tanlov natijalariga ta'siri bartaraf qilina bordi;

davlat xizmati masalasini ratsionallashtirish, rahbar kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishning ilmiy uslublari tobora mustahkamlana bordi. Bu davrga kelib davlat xizmati rentabel sohaga aylandi, rahbarshunoslik rivojlandi. Oliy o'quv yurtlarida jamiyatni boshqaruv (public administration) o'kuv kursi kiritildi. Keyinchalik bu kurslar alohida institutlarga aylantirilib keng miqyosda ilmiy izlanishlar uchun zamin yaratdi.

Ilmiy asosda boshqaruvga mehnat samaradorligini ko'tarishning bosh tamoyili sifatida yondashishga dastlab tadbirkorlar murojaat qildilar. Bir oz vaqt o'tgach, ilmiylik tamoyilining afzalligi namoyon bo'la boshlagach, davlat tezda buni o'zlashtirib oldi. Chunki, AQShda biznesda nimaiki o'zini oqlagan bo'lsa, uni barcha sohalarda muvaffaqiyatli qo'llash mumkin, degan qoidaga amal qilinardi.

Boshqaruv yo'riqnomasi quyidagi ilmiy tamoyillarga asoslanadi:

- Ratsionallik: Muhim masalalarni chuqur o'rganib, oqilona qarorlar qabul qilish.
- Prognozlash: Kelgusidagi vaziyat va ehtiyojlarni oldindan baholab, maqsadga erishish rejasini ishlab chiqish.
- Ixtisoslashtirish: Boshqaruv jarayonida eng mos resurslar va mutaxassislardan samarali foydalanish.
- Standartlashtirish: Eng yaxshi tajribalar va yutuqlarni joriy etish.
- O'lchov: Har bir xizmatchining masalani hal qilishga qo'shgan shaxsiy xissasi, uning mehnat samaradorligi va malakasini aniq hisob-kitob uslublari orqali o'lhash, baholash va rag'batlantirish. Bu tamoyillar muammolarni yechishning eng maqbul usulini qidirib topish va xarajatlarni imkon qadar kamaytirish kabi talablar bilan boyitildi.

Ilmiy boshqaruv nazariyasi davlat xizmatini tashkil qilishga qanday yordam berdi? Bu chora, eng avvalo, boshqaruv lavozimlarini yangicha standartlashtirish va tasniflashga asos bo'ldi. Jumladan, 1949 yili AQShning "Davlat xizmatchilari lavozimlari tasnifi haqida" qonuni qabul qilindi. U davlat xizmatining 18 ta darajasini aniqlab berdi. Biron-bir lavozimga o'tkazish, qabul qilish, imtihon orqali amalga oshirila boshlandi va bu sinovlar, asosan, talabgorning lavozim vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan malakasini, kompetensiyalarini o'lhashga xizmat qildi. Rostgo'ylik, bilim, ziyolilik, siyosiy betaraflik kabi talablarga alohida e'tibor qaratildi. Bu ko'rsatkich va talablar asosida tanlov fuqarolarni birinchi jahon urushi davrida AQSh armiyasiga chaqiruvda qo'llanib, o'z samarasini ko'rsatgani tufayli keyinchalik davlat xizmati sohasida ham qo'llana boshladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy boshqaruvni davlat muassasalariga joriy qilish boshida qiyin kechdi. Chunki biznes samaradorligining asosiy mezonlaridan bo'lmish foya uchun kurash, raqobat davlat boshqaruvi tizimida yo'q edi. Davlat xizmatida biznesda bo'lgan talab-taklif, narx-navoni belgilashdagi raqobat, qisqasi, foydani ko'rsatuvchi mezonlar bo'lishi mumkin emas edi.

Davlat xizmatida shaxsiy munosabatlar emas, qonun ustuvorlik qilar edi. Konunlar esa siyosiy kurashlar natijasida o'zgarib turar edi. Bu muammoni yechish uchun davlat xizmati

ma'muriy va siyosiy darajalarga bo'lindi. Ma'muriy darajaga kundalik vazifalarni bajarish, siyosiy darajaga esa ilmiy asoslangan uslublar asosida ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal qilish yuklatildi.

1937 yili davlat xizmati holatini o'rganuvchi maxsus komissiya tuzildi. Komissiya mamlakatda davlat, jumladan, prezident vakolatlarini kuchaytirish to'g'risida takliflar kiritdi. Komissiya e'lon qilgan ma'ruzada ijro hokimiyyati vakolatlarini prezident ixtiyorida jamlash zarurligi asoslandi. Buning uchun davlat xizmatini tashkil etishda keskin o'zgarishlar taklif kilindi[5]. Ya'ni,

birinchidan, javobgarlikning vertikal tizimini, aniq va doimiy - vertikal aloqalarini yaratish lozim;

ikkinchidan, davlat muassasalari soni shunchalik qisqartirilishi kerakki, toki ularni prezident va uning idorasi samarali boshqarishi mumkin bo'lsin;

uchinchidan, prezidentning ma'muriy ish bilan shug'ullanish imkoniyatlarini kengaytirish, ya'ni uning zimmasiga rejalashtirish, boshqarish, mulozimlarni tanlash, moliyaviy masalalarni hal etish bilan bog'liq boshqa vazifalarni ham yuklash taklifi kiritildi. Ular 50-60-yillarga kelib mutaxassislar tomonidan takomillashtirilib, joriy qilina boshlandi.

Hokimiyyat tepasiga kelgan Bill Clinton ham o'z ishini mavjud davlat xizmati tizimini islosh qilishdan boshladi. Shu maqsadda 1993 yili mart oyida vitse-prezident Albert Goraisligida milliy komissiya tuzildi. Komissiya olti oy mobaynida mavjud ahvolni o'rganib, yuzdan ortiq tavsiya bilan chikdi. Tavsiyalar amaliyotga joriy etilsa, yakin besh yil ichida 108 milliard dollar mikdorida iqtisodiy foyda kelishi xisoblab chiqildi.

Tadqiqotimiz doirasida biz uchun amerikaliklarning davlat xizmatiga ma'naviy-axloqiy yondoshuv tajribasi muhim. Qo'shma Shtatlarning zamонавиy davlat xizmatini tartibga solib turuvchi qonunlar mujassamlansa 100.000 betdan iborat to'plam bo'ladi. Bu qonunlar ishga qabul qilish, xizmat pillapoyalardan ko'tarilib borish, ishdan bo'shatish, nepotizm (urug'-aymoqchilik), davlat organlari tomonidan tovar va xizmatdan foydalanishning yuqori darajasini chegaralash, tuzilgan shartnomalarning asoslanganligini qayta-qayta tekshirishni nazarda tutadi. Natijada mansabdorlarning mahsulot ta'minotchilarini bilan til biriktirib, noqonuniy daromad olish yo'llari berkitiladi. Federal agentliklarda budget xarajatlarining har bir dollari aniq hisob-kitob qilib qo'yildi. Bu esa rejalashtirilmagan budget xarajatlarini to'xtatdi, mahalliy organlar, davlat budgeti asossiz xarajatlarining oldi olinib, nazorat kuchaydi.

Avvalo, federal xukumat turli tarmoklarida band bo'lган tajribali xodimlar ichidan ekspertlar guruhi tanlab olindi. Ular agentliklar va tarmoqlararo sohalardagi kadr, budget, moddiy texnik ta'minot muammolarini puxta o'rganib chikdi. Har bir vazirlikda komissiyaga yordam ko'rsatuvchi guruhlar tuzildi. Davlat xizmati tizimi islohoti bo'yicha tushgan takliflarni o'rganib, ekspertizadan o'tkazuvchi laboratoriylar tashkil etildi. Bu tadbirga bir necha ming federal xizmatchi jalb qilindi. Ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etilib, ular jamiyat tabaqalarini shu jumladan, mahalliy hokimiyyat organlari va tadbirkorlarning davlat xizmati islohotiga bo'lган munosabati maxsus o'rganildi. Tezkor tadqiqotlar o'tkazilib, 300.000 dan ortiq xat va telefon qo'ng'iroqlari orqali bildirilgan taklif, fikr-muloxaza yig'ildi, ko'plab davra suhbatlari, umummilliy darajada konferensiyalarda muhokama kilinib, taxlil etildi.

Komissiyaning fikricha, ortiqcha markazlashtirish, rasmiylashtirish xodimlar va bo'linmalarning tashabbuskorligini susaytiradi. Shu tufayli boshqaruvda tashabbuskorlikni rag'batlantiruvchi uslublar joriy qilinishi zarur edi. Jumladan, muayyan loyihibar uchun

moliyaviy mablag' olish maqsadida ma'lum tashkilotlar va davlat xizmatchilari orasida musobaqalar tashkil qilish eng samarali uslublardan biri ekani e'tirof etildi. Bu davlat xizmatchilarini o'z vazifasiga yanada mas'uliyat bilan yondashishga, jamoat birlashmalari bilan aloqa o'rnatishga undaydi.

Xullas, Amerika Qo'shma Shtatlarida davlat xizmati nazariyasini va uni xayotga tatbiq etish ishlari yuzasidan ana shunday tadbirlar davomiy tarzda rivojlantirildi. Xozirgi kunda ham bu mamlakatda davlat xizmatini yanada takomillashtirish bo'yicha izlanishlarni kuchaytirish va bu xizmatni ilmiy, ma'naviy-axloqiy asosda tashkil etish yo'nalishi qo'llab-quvvatlanmoqda.

Zamonaviy AQSh davlat xizmatiga federal, shtat va munitsipal darajalarda ishlaydigan xodimlar ham kiradi. Ular qonun hujjatlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, qonunlar va me'yoriy hujjatlarni ijro etish, shuningdek, fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Bunda ularning soft skills(yumshoq ko'nikmalari)ga katta e'tibor beriladi. Zero "Namunali davlat xizmatchisining fazilatlari nafaqat bilim va ko'nikmalarda, balki, ayniqsa, uning hamdardlik va jamoat manfaatlariga xizmat qilish istagini kuchida namoyon bo'ladi"[6]. AQShning zamonaviy davlat xizmati samaradorligi va shaffofligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalar va axborot tizimlaridan faol foydalanadi. Shuningdek, u mamlakat aholisining xilma-xilligini aks ettirish, barcha fuqarolarga teng imkoniyatlarni ta'minlash uchun xilma-xillik va inklyuzivlikka intilmoqda.

Davlat xizmatchilarining axloqiy fazilatlarini rivojlantirish muammosi doirasidagi adabiyotlarni ko'rib chiqish ushbu muammoning turli jihatlarini, masalan, davlat xizmatidagi etika, ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish usullari va vositalari, ma'naviy-axloqiy fazilatlarning samarali boshqaruvdagi o'rni mavjudligini ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar. Rivojlangan mamlakatlar davlat xizmatida axloqiy qadriyatlar va tamoyillarni rivojlantirish muammosi, davlat xizmatchilari axloqiy qadriyatlarining evolyusiyasi va davlat xizmatchilarida ularni rivojlantirish usullari va vositalari yaxshi o'rganilgan. Jumladan, davlat xizmati xususiyatlariga bag'ishlangan tadqiqotida axloqiy yetakchilik fenomeni va uning davlat xizmatidagi o'rni va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada 2001 yil AQShda qabul qilingan qonun "Zamonaviy ta'lim oluvchida qanday sifatlar tarbiyalanishi kerak?", degan savolga o'ziga xos javob beradi. Hujjatda quyidagi sakkiz fazilat mavjud[7]:

1. Dovyuraklik - o'z vijdoniga vafodor bo'lish, olomon fikriga qarshi tura olish, o'z nuqtai nazarini himoya qilishda qat'iyatlilik. Biz yaxshi sifatlar va ezgu tilaklar egasi bo'lishimiz mumkin biroq xarakat qilishdan, o'zimizni ko'rsatishdan, qiyinchilik va omadsizlikdan qo'rqsak, yuqoridaqilar bizga foyda keltira olmaydi. Bizda yuksak akademik tayyorgarlik darajasi bo'lgan holatda ham xarakat qilishga o'rgatishga yetarlicha e'tibor qaratilmaydi. Ya'ni xuquqlarini himoya qilish, muhim masalalar bo'yicha majlislar o'tkazish, muhim ijtimoiy masala bo'yicha o'z noroziligmizni bildirish o'rgatilmaydi. Biz o'ziga xosligimizni ko'rsatishga uyalamiz, ommadan ajralib boshqalarga o'xshamay qolishdan qo'rquamiz va mana shu mustaqil fikrlashni biz yoshlارимизга о'rgatishimiz lozim.

2. To'g'ri qarorlar qabul qila olish – yaxshi va muhim maqsadlarni ajrata olish, o'z harakatlarining oqibatlari xaqida fikr yuritib, sog'lom fikrlab mantiqiy to'g'ri qarorlar qabul qilish.

3. Halollik – to'g'ri so'z, ishonchli va halol bo'lish uchun ichki kuchni shakllantirish lozim. Odillik va g'urur bilan harakat qilishga o'rgatish lozim.

4. Mehribonlik – o'zgalarga e'tibor berish, shirinsuxanlik, yordamga hozirlik, tushunish, qayg'urish, xamdardlik, do'stlik, saxiylik va o'ziga nimani ravo ko'rmasa birovga xam shuni ravo ko'rmaslik.

5. Qat'iyatlilik - qiyinchiliklarni yengib o'ta olish, ishni yarim yo'lida tashlab ketmaslik va oxirigacha yetkazish.

6. Hurmat – odamlarga, xususan rahbariyat va o'ziga, mulkiga va Vataniga hurmatni namoyon qilish.

7. Mas'uliyatlilik – vazifalarni bajarishdagi ishonchlilik, bergen va'dasini bajara olish, o'z so'zлari va xarakatlari uchun javob berish, jamiyat hayotida faol bo'la olish. Hozirgi kunda ko'pincha mas'uliyatli, daxldor va o'z atrofidagi voqealarga ta'sir qilishga tayyor yoshlarni tarbiyalash tajribasi yetishmaydi. Yoshlar ko'proq tafakkur qilib atrofni o'zgartirishdagi o'z o'rirlari xaqida fikrashlari lozim. Anglash va xarakat qilish - mana shulurni hozirgi zamon fuqarolik tarbiyasi amalga oshirishi lozim.

8. O'zini idora eta olish – qattiq mexnat qila olish, maqsadga erishish uchun intilish, o'zida irodani tarbiyalash, doimiy rivojlanish va or-nomusini pok tutish. Bu o'z so'zlarini va xarakatlarni boshqarish, zararli odatlardan tiyilish va o'zini eng yaxshi tomondan namoyon etish kabiladir.

Ma'naviy-axloqiy qadriyatlardan uzoqlashgan davlat xizmatchisi qaysi mamlakat yoki mintaqada bo'lmasin, hamisha bir xil, marginal qiyofada namoyon bo'ladi: idoraviy manfaatlarni, qonun-qoidani ro'kach qilib, taraqkiyotga g'ov bo'ladi, o'zi esa zimdan qonunni buzib, korrupsiya asosida yashaydi. "Osiyo yo'lbarsi" deb nom olgan Singapurning rivojlanishida yuqori malakali va axloqiy fazilatlarga ega davlat xizmatchilarining o'rni nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu haqda 25 yil Singapur Bosh vaziri lavozimida faoliyat yuritib, o'z mamlakatini qoloq davlatdan dunyoning rivojlangan davlatlari qatoriga olib chiqqan Li Kuan Yu shunday deydi: "Hukumatda layoqatli vazirlar va ularga yordam bergen yuksak axloqiy fazilatlarga ega(ta'kid bizniki. D.I.) davlat xizmatchilarining borligi Singapurning muvaffaqiyatli taraqqiyotini ta'minlashda asosiy, hal qiluvchi omilga aylandi"[8].

"Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunda Singapur davlat xizmatchilariga qo'yilgan talablarни ko'rish mumkin. Masalan, Qonunning 11 muddasida belgilangan "davlat organining qonunga xilof qarorlari va uning mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish, davlat organi rahbariyatining noqonuniy topshiriq va talablarini bajarishdan bosh tortish, davlat fuqarolik xizmatidagi korrupsiyaga oid huquqbazarliklar faktlari to'g'risida xabar bergen taqdirda, davlat himoyasi bilan ta'minlanish" bandlari davlat fuqarolik xizmatchisidan mustahkam irodani, qat'iyatni, halollikni talab qiladi. Bular esa ma'naviy-axloqiy fazilatlardir.

Ma'lumki, KPI (Key Performance Indicators) alohida sub'ektlar (tashkilotlar, bo'linmalar, xodimlar) faoliyati samaradorligini aniq ko'rsatkichlar orqali o'lchash tizimi sifatida tashkilotning strategik maqsadlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Chunki bu bog'liqlik bo'lmasa, davlat xizmatchisi o'z kompetensiyalarini tashkilotning strategik vazifalari bilan muvofiqlashtira olmaydilar. Ayni paytda maqsadlar o'zgarishi bilan ko'rsatkichlar to'plami ham o'zgartirilishi kerak. Davlat xizmatida KPI joriy etishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Davlat idoralari, bo'linmalari va xodimlarini samarali ishlashga undash
- Xizmatchilar vazifalarining jamiyat ehtiyojlariga mosligini tahlil qilish

- Xodimlar faoliyatini tashkilotning strategik maqsadlari bilan uyg'unlashtirish
- Rahbarlarni aholi bilan aloqani yaxshilashga yo'naltirish
- Xizmatchilar faoliyatini nazorat qilish tizimini yaratish
- Davlat idoralari faoliyatining shaffofligini oshirish

KPI tizimini joriy etishda ko'rsatkichlarni to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga ega. Bu ko'rsatkichlar miqdoriy o'lchanadigan, oldindan aniqlanadigan, tizimli tanlanadigan, ob'ektiv ma'lumotlarga asoslangan va tashkilot maqsadlariga mos bo'lishi lozim. Bunday indikatorlarni belgilash ilmiy va funksional yondashuvni talab etadi.

AQShning Kaliforniya shtatidagi Sanniveyl shahri tajribasi bu borada qiziqarli misol bo'la oladi. 2000-yillar boshida shahar rahbarlari aholining turmush darajasini boshqaruv samaradorligining asosiy ko'rsatkichi sifatida tanladilar. Natijada, shahar ma'muriyati faoliyatini baholashda quyidagi mezonlar qo'llanila boshlandi:

- Xavfsizlik darajasi
- Ta'lif sifati
- Ekologik holat
- Transport tizimi samaradorligi
- Uy-joy bilan ta'minlanganlik
- Aholining o'z hududidan faxrlanishi
- Fuqarolarning jamoat ishlaridagi ishtiroki
- Iqtisodiy rivojlanish sur'atlari
- Madaniy hordiq imkoniyatlari

Muhimi, davlat xizmatchilari bu ko'rsatkichlarga bevosita ta'sir ko'rsata olishlari kerak. KPI tizimi davlat xodimlariga yangicha talablar qo'yadi va ularning yangi qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada, davlat xizmatchisi istiqbolni ko'ra biladigan, murakkab vazifalarni tez va samarali hal qiladigan, kam xarajat evaziga katta natjalarga erishadigan, tashkilotning strategik maqsadlariga real hissa qo'sha oladigan yuqori malakali kadrga aylanadi.

Har qanday mamlakatda islohotlar samaradorligi boshqaruv kadrlarining kasb malakasi va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga bog'liq. Shu bois, davlat xizmatchilarining uzluksiz ta'lmini yo'lga qo'yish, ayniqsa, ta'lif sifatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasida davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarligini oshirish tizimini takomillashtirish ko'zda tutilgan. Bu esa davlat fuqarolik xizmatida inson resurslarini rivojlantirish va kadrlar salohiyatini kuchaytirish yo'nalishlarida ish olib borilishini taqozo etadi:

- Xizmatchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini uzluksiz rivojlantirish
- Ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan malaka oshirish tizimini kuchaytirish
- O'zgaruvchan sharoitlarda samarali qarorlar qabul qiladigan yangi avlod kadrlarini tarbiyalash
- Xizmatchilarning kitobxonligini rag'batlantiruvchi muhit yaratish

Shu o'rinda, davlat xizmatchilari uchun Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi bilan hamkorlikda zamonaviy ma'naviy-axloqiy ta'lif dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, davlat xizmatchilari uchun o'z-o'zini ma'naviy-axloqiy rivojlantirish bo'yicha malaka oshirish majburiy bo'lishi kerak. Bu esa o'z navbatida davlat xizmatining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Jamiyat va fuqarolar davlat xizmatidagi ijobiy o'zgarishlarni, davlat idoralarining xalqqa xizmat qilish samaradorligi ortganini his qilishlari lozim. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, davlat xizmatchilari ma'naviy-axloqiy fazilatlarining darajasi past bo'lsa, bu davlat tomonidan o'z xodimlarining mas'uliyatini, milliy o'zini anglashini kuchaytirish choralarini ko'rishni taqozo etadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент, “Ўзбекистон”, 2018. – 24-бет.
2. Мирзиёев.Ш. “Танқидий таҳдил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак”. Т.: Ўзбекистон. 2017. –Б.78.
3. Light, P. C. (2017). A Government Ill Executed: The Decline of the Federal Service and How to Reverse It. Harvard University Press. Peters, B. G., & Pierre, J. (2018). Handbook of Public Administration. SAGE Publications. Stillman, R. J. (2016). Public Administration: Concepts and Cases. Cengage Learning. Milakovich, M. E., & Gordon, G. J. (2018). Public Administration in America. Routledge. Rosenbloom, D. H., Kravchuk, R. S., & Clerkin, R. M. (2017). Public Administration: Understanding Management, Politics, and Law in the Public Sector. McGraw-Hill Education. O'Leary, R., & Bingham, L. B. (2019). The Collaborative Public Manager: New Ideas for the Twenty-First Century. Georgetown University Press. Thompson, J., & Riccucci, N. (2017). Public Personnel Management: Contexts and Strategies. Routledge. Van Ryzin, G. G., & Bovaird, T. (2016). Public Management and Performance: Research Directions. Cambridge University Press.
4. Закон Пендлтона о реформе государственной службы - Pendleton Civil Service Reform Act. https://ru.wikibrief.org/wiki/Pendleton_Civil_Service_Reform_Act(14.12.2023).
5. Report of the Committee Special studies (The President's Committee on Administrative Management). Wash., 1937.
6. Characteristics of Effective and Ethical Public Servants. <https://www.gcu.edu/blog/criminal-justice-government-and-public-administration/effective-and-ethical-public-servants>.(14.12.2023).
7. The Student Citizen Act of 2001. 18 р.
8. Ли Куан Ю. Учинчи дунёдан биринчи дунёга. Сингапур тарихи (1965-2000). Тошкент, Академнашр, 2022. 36 6.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Nº 8 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
маъсулити чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).